

## MUSIQA SAN'ATIDA PSIXOLOGIYA: XAYOL VA TASAVVUR

**Omonov Xasan Sulaymonovich, dotsent**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiyada tasavvurning faolligi, uning ijodkorlik xususiyati kompozitor, ijrochi faoliyatida, ularning yangi musiqiy badiiy obrazlar yaratishida yetakchi rol o'ynashi, xayol, tasavvur, fantaziya musiqa san'atiga shu qadar yaqinki, hatto aynan «fantaziya», «xayollar», «orzular» deb atalgan ko'pgina musiqiy asarlar mavjudligi to'g'risida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** fantaziya, psixologiya, tasvir, yaratuvchanlik, xayol, orzu, tasavvur, musiqa, asar, idrok, kompozitor, ijrochi, obraz.

**Abstract:** In this article, the activity of imagination, its creative features in the activities of composers, performers, their leading role in the creation of new musical artistic images, imagination, imagination, fantasy are so close to the art of music that they are even called "fantasy", "dreams", "dreams". the existence of many musical works mentioned.

**Keywords:** fantasy, psychology, image, creativity, fantasy, dream, imagination, music, work, perception, composer, performer, image.

**Аннотация:** В данной статье активност воображения, его творческие особенности в деятельности композиторов, исполнителей, их ведущая рол в создании новых музыкально-художественных образов, воображение, воображение, фантазия настолко близки музыкальному искусству, что их даже называли «фантазиями», «мечтами», «мечтами».Существование многих музыкальных произведений упоминалос.

**Ключевые слова:** фантазия, психология, образ, творчество, фантазия, мечта, воображение, музыка, произведение, восприятие, композитор, исполнитель, образ

*Xayol, tasavvur yoki fantaziya* – yangilik yaratuvchi kishining ruhiy, ijodiy faoliyati natijasidir.

Xayol, tasavvur, fantaziya qobiliyati inson miya faoliyatidagi oliy fikrlash jarayonlarining eng ajoyibidir. Tasavvurli obraz yaratish, yuzaga keladigan masalalarni hal etish, hatto kerakli axborot va bilim to'liqligi bo'lmasa ham, kelajakni ko'ra olish imkonini beradi. Masalaning bunday hal etilishidagi kamchilik shundaki, tasavvurlar doim ham yetarlicha aniq bo'lavermaydi.

Umumiy psixologiyada tasavvurning quyidagi: faol va sust ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Sust tasavvurlar: atayin – xayol, orzu va bexos – tush, gallyutsinatsiya.

Faol tasavvurlar: yaratuvchanlik – tasvirga mos obraz yaratish va ijodkorlik – mustaqil holda yangi obraz yaratish.

Musiqa san'atida xayol, tasavvur, fantaziya favqulotda muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ifoda vositasi faol tasavvur va uning yaratuvchilik va ijodkorlik xususiyatlari tufayli ongimizda badiiy obrazlar yaratilishiga yordam beradi.

Tasavvurning faolligi, uning ijodkorlik xususiyati kompozitor, ijrochi faoliyatida, ularning yangi musiqiy badiiy obrazlar yaratishida yetakchi rol o'ynaydi. Xayol, tasavvur, fantaziya musiqa san'atiga shu qadar yaqinki, hatto aynan «fantaziya», «xayollar», «orzular» deb atalgan ko'pgina musiqiy asarlar mavjud.

Xayol nafaqat fikrlash faoliyatida turli obrazlar yaratadi, balki insondagi organik jarayonlarga ham kuchli tahsir etadi. Masalan, o'qituvchining o'quvchiga qo'ygan noto'g'ri bahosi yoki shifokorning yanglish tashxisi qanday oqibatlariga olib kelishini bilamiz. Birinchi holatda norizolik kompleksi rivojlanib ketishi, ikkinchida esa bemor unda umuman bo'lmagan kasalliklar bilan kasallanishi mumkin (boshqa misollar: o'zini ishontirish, autotrening, gipnoz, ideomotor aktlar, bionurlar).

Musiqiy asar aynan uch ko'rinishda mavjud bo'ladi: kompozitor tomonidan yozilgan nota matni, bu yozuv asosida ijrochi tomonidan yaratilgan jonli ijro, musiqadagi badiiy obrazlarning tinglovchi hayotiy tajribasi bilan o'zaro ta'siri (yaratish, ijro etish, tinglash – B.V.Asaf'eyvga ko'ra). Bu faoliyat turlarining barchasi – musiqa yaratish, uni ijro etish, qabul qilishda – sifatli musiqiy faoliyatni ta'minlovchi tasavvur obrazlari albatta ishtirok etadi.

Musiqiy asarni yarata turib kompozitor xayoliy ovozlarga tayanadi, ularni rivojlantirish mantig'ini o'ylab chiqadi, musiqa yaratish jarayonidagi hissiyot va fikrlarni eng yaxshi holatda yetkazib beruvchi ohanglarni tanlaydi.

Ijrochi kompozitor tomonidan berilgan matn bilan ishlay boshlaganda uning texnik mahorati musiqiy obrazni yetkazib berishning asosiy vositasi bo'lib chiqadi. Uning yordamida esa ijrochi kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembrni topadi. Ijro muvaffaqiyati ko'pincha ijrochi musiqiy asar obrazini qanchalik yaxshi his qilishi va tushunishiga bog'liq bo'ladi.

Agar tinglovchining tasavvurida musiqa tovushlari asar ruhiga mos hayotiy vaziyatlar, obrazlar, assotsiatsiyalarni shakllantira olsa, u kompozitor va ijrochi ifodalamoqchi bo'lgan narsani tushuna oladi. Ko'pincha boy hayotiy tajribaga ega, ko'p narsani boshdan kechirgan kishi alohida musiqiy tajribaga ega bo'lmasa ham, musiqiy tayyorgarlikka ega, biroq hayotiy tajribasi kam odamga nisbatan musiqaga chuqurroq munosabat bildiradi.

**Musiqiy tasavvurning hayotiy tajriba bilan bog'liqligi;** Bilamizki, bir hayotiy mazmun kompozitorlar tomonidan ularning individualligi, uslubi va yashagan davriga bog'liq ravishda turlicha gavdalantiriladi. Yer yuzining turli qit'alarida qayg'u va quvonchning farqi yo'q. Lekin bu tuygularning musiqadagi ifodasi ko'pincha tarixiy taraqqiyot tamoyillariga muvofiq bo'ladi.

Bitta musiqiy asarni tinglagan ikki kishi o'z hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda uni turlicha tushunishi, baholashi va unda turli obrazlarni ko'rishi mumkin.

Musiqani eshitish, ijro etish va yaratishga oid bu xususiyatlarning barchasi tasavvurning xosilasidir. U esa ikkita odamda bir xil bo'lmaydi.

Musiqiy tasavvur faoliyati musiqiy eshitish tushunchasiga chambarchas bog'liq. Bu tushuncha tinglash jarayonida yangrayotgan musiqa haqida bevosita ta'ssurot beruvchi musiqiy idrok asosida rivojlanadi. Lekin musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish ishi bilan yakunlanmasligi kerak. B.M.Teplov haqli

ravishda ta'kidlaganidek: «deyarli hech qachon faqat eshitish taassurotlari bo'lmaydi va u ko'rish, harakat va boshqa lahzalarni o'z ichiga olishi kerak».

Biroq musiqiy obrazlar tilini so'zlar bilan tarjima qilishga urinishning keragi yo'q. P.I.Chaykovskiy o'zining To'rtinchi simfoniyasi haqida S.I.Taneevga yozgan xatida ta'kidlashicha, agar bu simfoniya so'zlar bilan ta'riflansa, u kulgi uyg'otishi va kulguli tuyulishi mumkin. «Simfoniya, - deydi P.I.Chaykovskiy, - so'z bilan aytib bo'lmaydigan narsani ifodalashi, lekin u ko'ngildan chiqishi va aytilish kerak bo'lishi lozim». Qolaversa, kompozitor musiqani yaratgan shart-sharoitlar ham o'rganilishi kerak. Asar uning dunyoni his etishi va u yashagan davr dunyoqarashidir va bu narsalar musiqiy asar ijrosidagi badiiy g'oyaning shakllanishiga tahsir qiladi.

Mahlumki, asar dasturi, ya'ni kompozitor biror nom bergan yoki maxsus tushuntirishlar bergan dastur nisbatan yengilroq qabul qilinadi. Bu holda kompozitor uning asari bilan tanishishda ijrochi va tinglovchi tasavvurlari qay o'zanda harakat qilishini belgilab beradi. Nodasturiy asarning dasturini topish g'ayrimusiqiydir va musiqaga xuddi tasviriy san'atga yondashgandek munosabatni bildiradi. Agar, dastur mavjud bo'lsa uni bilish, B.M.Teplov to'g'ri ta'kidlaganidek, «musiqiy dasturni to'la va aynan qabul qilishning zaruriy sharti»dir. Buni, ayniqsa, bolalar bilan ishlashda ehtiborga olish kerak. «Agar bolalarga dasturni topish vazifasi yuklatilsa, bu ularni musiqada ma'lum bir mazmun qanday ifodalanganligini eshitish o'rniga, undan tasviriy ishoralar izlashga majbur qiladi. Bu ish oqibatda musiqaga mutlaqo ma'nosiz bo'lmaganda ham, og'ir, ikki ma'noli, noaniq tilga bo'lgandek qarash paydo qiladi»<sup>1</sup>. Professional musiqachi uchun, G.G.Neygauz so'zlari bilan aytganda, «musiqaga – tugallangan nutq, aniq fikr... u ma'lum bir immanent (o'ziga xos – R.Q.) ma'noga ega va shuning uchun uning qabul qilinishi va tushunilishi uchun hech qanday qo'shimcha so'z yoki tasviriy izoh va aniqlashtirishlarga ehtiyoj bo'lmaydi... Shu boisdan ham ijodiy tasavvuri bor odam uchun butun musiqaga ayni choqda dasturdir (sof, dastursiz deb ataluvchi musiqaga ham!) va u hech qanday dasturga muhtoj bo'lmaydi ham, chunki u butun mazmunni oxirigacha o'z tilida bayon etadi»<sup>2</sup>.

**Musiqiy tasavvurning rivojlanishi;** Hozirgi paytda musiqaga ta'lim nazariyasi va amaliyotida ta'limdagi «musiqiy cholg'ugacha» bo'lgan davrning zarurligi haqida ko'p gapirilmoqda. Bu vaqtda o'quvchilarda usiz musiqaga olamiga kirishning iloji bo'lmagan badiiy taassurotning minimum darajasi yig'ilib boradi. Bu haqda I.Gofman shunday degan: «O'quvchi har bir nota, sekvensiya, ritm, garmoniya va notalarda ko'rsatilgan barcha ko'rsatmalarni tushunib yetmaguncha klaviaturaga intilavermasa, o'ziga juda yaxshi yordam bergan bo'ladi, negaki chalish – ijrochi yaxshi biladigan narsani qo'llar yordamida ifodalab berishdir»<sup>3</sup>.

Tayyorlov davrining vazifasi nafaqat musiqiy eshitish qobiliyatini, balki o'z ichiga musiqiy eshitish, harakat va ko'rish tasavvurlarini olgan barcha ijodiy tasavvur turlarini aniq bir maqsad yo'lida rivojlantirishdir. Bolalarni tayyorlov

---

<sup>1</sup> Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей, М., 1947, с.21-22.

<sup>2</sup> Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игры, М., 1987, с.31-32.

<sup>3</sup> Гофман И. «Фортепианная игра: Ответы на вопросы о фортепианной игре. М., 1961, с.33.

davri mashg'ulotlarida o'qish, she'r yozish, rasm chizish, naqsh solish, qo'shiqlarni sahnalashtirish va dramatisatsiya o'yinlari kabi badiiy faoliyatning turli sohalariga jalb etish muhimdir.

Musiqiy asar talqinining xilma-xilligiga dinamika, agogika, artikulyatsiya, pedalizatsiya kabi ifodaviylikning ijrochilik vositalaridan foydalanish hisobiga erishiladi. Rivojlangan tasavvur sahna hayajonini yengib o'tishga va, umuman, musiqiy ijro sifatining yaxshilanishiga ko'maklashadi. L.A.Barenboym uyda mashq qilganda o'zini kontsert zalida deb tasavvur qiluvchi pianinochini misol keltiradi. «U xayolan go'ya auditoriya oldida butun dastur yoki alohida asarni ijro etishining o'ziyoq yetarli va u nima ishonchli jaranglayapti, nima yo'q, tinglovchi u yoki bu pe'esa ijrosiga qanday munosabatda bo'layotganligini biladi. Ana shunday bir necha shugullanishdan so'ng u to'la ishonch bilan sahnaga chiqishga tayyor bo'ladi. Sahnaga chiqish uchun tayyorgarlik uslubini topgunga qadar pianinochi mutlaqo boshqa hissiyotni boshdan kechirardi: u yangi dastur bilan sahnaga chiqishga qo'rqardi»<sup>4</sup> Musiqachi-ijrochi ishi amaliyotiga aktyorlik usullarining joriy etilishi badiiy ijroning yuqori darajasini egallashga yordam beradi, undagi psixik jarayonlarning mukammallashishiga ko'maklashadi.

Ana shu tarzda, «tasavvur» mavzusi so'ngida shunday xulosa qilish mumkinki, musiqiy tasavvur faoliyati ichki eshitish jarayonida musiqiy-eshitish tasavvurlari sohasidan o'tadi. Bilamizki, musiqachi uchun dunyoni «musiqiy» anglash xosdir, u atrof-muhitdan qancha ko'p taassurot olsa, ongida shunchalik ko'p obrazlar shakllanadi. Tasavvur ishi «fikrlash» yoki «badiiy» tarzda bo'lishi mumkin, lekin har ikki holda ham kompozitor, ijrochi, tinglovchi kundalik hayotdan farqlanuvchi boshqa dunyoga o'tishni bilishi zarur. Xayoliy vaziyatlar tasavvurni rivojlantirish uchun turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abert G. V.A.Motsart: V 2 ch. M., 1989. Ch.2, kn. 2.
2. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. T., 1997.
3. Aleksandrova V., Meylax Ye. List. L., 1968.
4. Alekseev A. Sebya preodoletg'. M., 1985.
5. Alekseev A.D. Istoriya fortepiannogo iskusstva. M., 1988. Ch.1,2.
6. Alekseev A.D. Metodika obucheniya igre na fortepiano. M., 1978.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jild. T., 1987-2003.
8. Alg'-Farabi. Matematicheskie traktato'. Alma-Ata, 1972.
9. Alg'-Farabi. Filosofskie traktato'. Alma-Ata, 1970.
10. Alyakrinskiy B.S. O talantax i sposobnostyax: Ocherki o samovospitanii. M., 1971.
11. Barenboym L.A. Voprosy fortepiannoy pedagogiki i ispolnitelstva. M., 1969, s.64.
12. Barenboym L.A. Voprosy fortepiannoy pedagogiki i ispolnitelstva. M., 1969, s.64
13. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р.Оила психологияси.Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент.2022 й.